

**ICHKI ISHLAR ORGANLARINING HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI
ORGANLARI BILAN HAMKORLIGINING ASOSIY BELGILARI.
(Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar misolida)**

Subanov Olimjon Suyarkul o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi

(+99893) 551-71-30.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14742863>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ichki ishlar organlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorligining asosiy belgilari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ichki ishlar organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi.

**MAIN FEATURES OF COOPERATION OF INTERNAL AFFAIRS BODIES WITH
LAW ENFORCEMENT BODIES.**

(On the example of bodies implementing crime prevention)

Abstract. This article covers the main features of cooperation of internal affairs bodies with law enforcement bodies.

Keywords: internal affairs bodies, law enforcement bodies, maintaining public order, crime prevention.

**ОСНОВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ
ДЕЛ С ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫМИ ОРГАНАМИ.**

(В отношении органов, осуществляющих профилактику правонарушений)

Аннотация. В статье рассматриваются основные особенности взаимодействия органов внутренних дел и правоохранительных органов.

Ключевые слова: Органы внутренних дел, правоохранительные органы, охрана общественного порядка, профилактика преступлений.

Ichki ishlar organlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorligining asosiy belgilaridan biri ularning huquqiy tartibga solinganligidir. Ichki ishlar organlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorligining huquqiy tartibga solinganligi uni tashkil etish tartibini mustahkamlaydi, hamkorlikka kirishuvchi har bir sube'ktning mas'uliyatini oshirishi bilan birgalikda ularning huquq va majburiyatlarini huquqiy kafolatlaydi.

Shuning uchun, biz Ichki ishlar organlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorligini tartibga soluvchi huquqiy normalar va ularni qo'llash amaliyotini ilmiy-nazariy tahlil

qilishimizdan oldin avvalo, mazkur sub'ektlar o'rtasidagi huquqiy asoslarni mazmun-mohiyatini to'liq anglab olish uchun ularni tegishli guruhlariga ajratib tahlil qilib olishimiz lozim bo'ladi.

a) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari;

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;

v) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;

g) Ichki ishlar vazirligining idoraviy, shuningdek boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan birgalikda qabul qilgan idoralararo normativ-huquqiy hujjatlari;

d) mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid qarorlari

Konstitutsiyaning normalari demokratik jamiyatdagi barcha munosabatlarni ijtimoiy adolat va insonparvarlik prinsiplariga asoslangan holda tartibga solishning birlamchi asosiy manbai sifatida xizmat qilishi bilan har qanday huquqqa xilof qilmishning oldini olishni ta'minlaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir guruh qoidalarini o'z navbatida jinoyatlarning oldini olish xususiyatiga ega bo'lib, fuqarolarni har xil turdagi jinoiy tajovuzlardan himoya qilishda va ularni jamiyatdagi umuminsoniy, axloqiy normalar asosida tarbiyalashda asosiy manba hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyamizning 13-moddasida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Mazkur ulkan va sharaflilar vazifalarni ta'minlash, boshqa davlat organlari, muassasalari va tashkilotlari qatori Ichki ishlar organlari bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlarining ham asosiy vazifasidir. Konstitutsiyaning 121-moddasida qonuniylik va huquq-tartibotni, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda jamoat tashkilotlari va fuqarolar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yordam ko'rsatishi mumkinligi kafolatlangani ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan hamkorligini tashkil qilishga asos yaratib bergan bo'lsa, 58-moddasida davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga, ayni paytda jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmasligi ushbu hamkorlikning aniq chegarasini belgilab beradi. Konstitutsiyamizdan keyingi eng asosiy huquqiy asoslarimizdan biri bu, O'zbekiston Respublikamizda qabul qilingan qonunlar xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining sog'ligi davlat tomonidan muhofaza qilinadi va kafolatlanadi. Jumladan, Konstitutsiyaning 24-moddasida "Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir" deb ko'rsatib o'tilgan, 40-moddada "Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega"[1] deb sog'ligi yomonlashganda va boshqa hollarda sog'liqni saqlash organlariga murojaat etishi va davolanishi mumkinligi belgilangan, shu bilan birga mamlakatimizda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish davlat

tomonidan bepul amalga oshirilishi ta'minlanadi. Konstitutsiyada ko'rsatilgan fuqarolarning tibbiyot sohasidagi kafolatlarini ta'minlashda Ichki ishlar organlari sog'liqni saqlash organlari bilan hamkorlik qilishlari va aholining bu boradagi huquq va ekrinliklaridan foydalanishlariga va o'z navbatida qonun normalarining bajarilishini amalga oshiradi. Xozirgi kunda Prezidentimiz tomonidan yoshlarga nisbat katta e'tibor qaratilmoqda. Shunday ekan O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi 2008-yil 7-yanvar qonunining qabul qilinganligi, birinchidan, jamiyatda bolalar huquqlari kafolatlarini ta'minlashtizimini belgilab bergan bo'lsa, ikkinchidan, bola huquqlari kafolatlarini ta'minlash orqali ular orasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishni ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi 2010-yil 29-sentyabr qonuni "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida ko'rsatilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning nazoratsizligi, qarovsizligi va huquqbuzarliklarining profilaktikasini amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga soladi.

Ichki ishlar organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorligining qonun darajasida tartibga solinganligi bo'yicha ijtimoiy munosabatlarni tahlil qilsak, quyidagi qonunlarning ob'ekti doirasida mazkur bo'linmalar hamkorligi amalga oshirilishini kuzatishimiz mumkin: Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi hamda 2000-yil 25-maydagi "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi qonunlari asosida, ayrim faoliyatlarni litsenziyalash va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish, shuningdek litsenziya va ruxsat etishga oid talablarga hamda shartlarga rioya etilishini nazorat qilish tartibga solingan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 4-yanvardagi "Dori vositalari va farmasevtika faoliyati to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonuni bilan ushbu bo'linmalarining hududda fuqaroviy va xizmat qurollarining hamda ular o'qdorilarining, sanoat uchun mo'ljallangan portlovchi materiallar, shuningdek pirotexnika buyumlar, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ular prekursorlarining muomalada bo'lishi sohasida hamkorligi amalga oshiriladi.

Ichki ishlar organlari tomonidan favqulotda vaziyatlarda jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda harbiysafarbarlik ishlarini va fuqarolar muhofazasi tadbirlarini amalga oshirishda Prokuratura, Davlat havfsizlik xizmati va Bojxona organlari bilan hamkorliklari O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi qonuni normalari bilan tartibga solingan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrda «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi qonuni Ichki ishlar organlari terrorizmga qarshikurashish, xususan

uning oldini olish bo'yicha faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy manba bo'lib, ularning bu borada huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorligini belgilab beradi. Qonunning normalariga ko'ra, mazkur bo'linmalar o'rtasidagi hamkorlik ma'muriy hududlarda terrorizm va uning turli-xil ko'rinishlariga qarshi ko'rashish, fuqarolarning diniy ibodat libosida yurishini oldini olish, ichki ishlar organlarida diniy ekstremizm oqimi xayrixohi sifatida hisobda turuvchi shaxslar bilan umumiy, maxsus va yakka tartibdagi profilaktik choratadbirlar majmuini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, Ichki ishlar organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarining bu boradagi hamkorligiga ushbu qonunning 6-moddasiga asosan, mahalliy davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar ko'maklashadi va zarur yordam beradi.

Ichki ishlar organlari hududlarda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini sifatli ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining (2001-yil 29-avgust) "Prokuratura to'g'risida"gi qonun normalariga asosan hududiy prokuratura organlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi. Shu bilan birgalikda, prokuratura organlari qonunning 4-moddasiga asosan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar jumladan, Ichki ishlar organlari tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish sube'kti sifatida ayrim protsessual jarayonlarda hamkorlik qilishi huquqiy kafolatlangan.

Ichki ishlar organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlari faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash, shuningdek, huquqbuzarliklarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishda fuqarolarning sha'ni va qadrqimmatini tajovuzlardan, o'z shaxsiy hayotiga aralashuvlardan himoya qilishga bo'lgan huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jismoniy va yuridik shaxslarning o'z ishchanlik obro'sini himoya qilishga bo'lgan huquqlariga rioya etilishini ta'minlash O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 5-mayda qabul qilingan «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi qonuni bilan huquqiy tartibga solingan [2].

Mazkur qonun asosida Ichki ishlar organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorligining ta'minlanishi:

birinchidan, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari ish jarayoni va erishilgan natijalarini keng ommaga yoritishga;

ikkinchidan, hamkorlik yoʻnalishlari boʻyicha axborot olish huquqining kafolatlarini taʼminlashga;

uchinchidan, profilaktika inspektorlarining protsessual qarorlar ijrosini taʼminlash uchun masʼuliyatini oshirishga;

toʻrtinchidan, huquqbuzarliklar profilaktikasini taʼminlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish toʻgʻrisidagi axborotlarni tarqatish tartibini huquqiy kafolatlashga xizmat qiladi.

Shuning uchun ham, 2017 — 2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirilidi unga koʻra huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquqiy maqomi, har bir huquqni muhofaza qiluvchi organning oʻziga xos xususiyatidan kelib chiqib, uning vakolat va vazifalari, mazkur organlarning vakolatlari va funksiyalari takrorlanishini bartaraf etish shuningdek, faoliyatida ochiqlik va shaffoflik prinsiplari yanada isloh qilishni nazarda tutuvchi “Huquqni muhofaza qiluvchi organlar toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqilishi belgilangan [3].

Shu bilan birgalikda Ichki ishlar organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan maʼmuriy hududiy birliklarda huquq-tartibotni saqlash, mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shartsharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qoʻllaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakkatartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy chora-tadbirlarini amalga oshirishdagi hamkorligi Oʻzbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi toʻgʻrisida»gi qonuni bilan belgilangan [4].

Mazkur qonun profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash boʻlinmalari bilan hamkorligida yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim huquqiy asosi boʻlib, ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari aynan mazkur boʻlinmalarning hamkorligi doirasida amalga oshirilishini amaliyot natijalari isbotlab bermoqda. Mazkur qonun profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash boʻlinmalari bilan hamkorligida yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim huquqiy asosi boʻlib, ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vakolatlari aynan mazkur boʻlinmalarning hamkorligi doirasida amalga oshirilishini amaliyot natijalari isbotlab bermoqda.

Ichki ishlar organlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorligini tartibga soluvchi maxsus qonunlar haqida taʼkidlanganda, Oʻzbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari toʻgʻrisida”gi qonuni [5] alohida huquqiy ahamiyatga ega. Chunki, mazkur qonun ichki ishlar organlarining barcha sohaviy xizmatlari oʻzining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida qonunning 11-moddasiga asosan

barcha davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilinishi huquqiy kafolatlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi farmonlari va qarorlari Ichki ishlar organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorligini belgilab beradi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 14-martdagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 2833-son qaroriga asosan huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tashqil etildi. Unga ko'ra, barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha vazifa va funksiyalari mazkur komissiya negizida belgilab berildi.

Xulosa o'rniga ta'kidlash joizki, Ichki ishlar organlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan hamkorligining huquqiy tartibga solinganligi, birinchidan, ular o'rtasidagi hamkorlikning tashkil etish tartibini mustahkamlasa, ikkinchidan, hamkorlik bo'yicha Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalarini belgilab, jumladan ularning mas'uliyatini oshirishga hamda hamkorligini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023
2. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 5 mayda qabul qilingan «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi qonuni.
3. 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini.
4. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrda qabul qilingan «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonuni.